

TIBBIY XIZMATLAR BOZORIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI TAHLILI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Ma'mun NTM o'qituvchisi,

URDU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: ddvais5@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tahlili o'rganilib, sohada tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha zaruriy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmatlar bozori, tashkiliy-iqtisodiy omillar, tashkiliy-iqtisodiy omillar tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar.

Аннотация

В данной статье изучен анализ организационно-экономических факторов развития малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства на рынке медицинских услуг, а также сделаны необходимые выводы по развитию предпринимательства в этой сфере.

Ключевые слова: рынок медицинских услуг, организационно-экономические факторы, анализ организационно-экономических факторов, малый бизнес и субъекты частного предпринимательства, развитие предпринимательства и др.

Abstract

In this article, the analysis of the organizational and economic factors of the development of small business and private business entities in the market of medical services is studied, and the necessary conclusions on the development of entrepreneurship in the field are presented.

Keywords: medical services market, organizational and economic factors, analysis of organizational and economic factors, small business and private business entities, entrepreneurship development, etc.

KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli bu yo'nalishda ko'plab ijobiy va natijali islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yaratilayotgan sharoitlar samarasi o'laroq mamlakatimizning turli hudud va mintaqalarida yangi tadbirkorlik subyektlari barpo etilmoqda, faoliyat ko'rsatayotganlarini imkoniyatlari oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston-2030 Strategiyasidagi maqsadlarga muvofiq, hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish. o'rta

va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda boshqa xizmat turlari kabi tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali zamonaviy raqobatbardosh tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil qilinishi tezlashtiriladi.

Barqaror tibbiy xizmatlar bozorining mavjudligi aholi salomatligini ta‘minlash kabi ijtimoiy vazifalar bilan bir qatorda ishsizlikni kamaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tibbiy xizmatlar yaratish hamda tibbiyot turizmini rivojlantirish kabi iqtisodiy vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Tibbiy xizmatlar bozorining tashkiliy iqtisodiy omillarini o‘rganish, tadqiq qilish, nafaqat tibbiy xizmatlar sifati va raqobatbardoshligi, balki tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes vakillari faoliyatini yanada rivojlantirish va kengaytirish uchun zaruriy ma‘lumot, taklif hamda tavsiyalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Omil” ilmiy atamasining mazmuni — ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo‘lishi uchun sabab bo‘lgan yoki bo‘ladigan narsa, sabab holat bo‘lib hisoblanadi. [1] Tashkiliy iqtisodiy omillarni esa bevosita jarayon yoki harakatni shakllantirish, yaratish, davom ettirish hamda natijali yakunlash uchun tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishda ta‘sir qiluvchi omillar sifatida tavsiflash mumkin. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy omillari, ularning ta‘siri ilmiy-amaliy muhit ishtirokchilari: tadbirkorlar va tadqiqotchilar uchun qiziqarli mavzu bo‘lib hisoblanadi.

Jumladan, tibbiy xizmatlar bozori, unda KBXTni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy omillari ko‘plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, rus olim va olimalari Zozulya Yuriy Viktorovich., Korobkova Oksana Konstantinovnalar hamda respublikamiz olimlaridan O‘.Rajabov., G.Mamadova va N.Nazarova ilmiy ishlanmalarida atroflicha ko‘rib chiqilgan. Jumladan, Zozulya Yuriy Viktorovich RF Chuvashiya Respublikasi misolida sog‘liqni saqlash sohasini boshqarish metodologiyasi mavzusida tadqiqotlar olib borgan holda tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha ilmiy amaliy takliflar bergan. [2] Korobkova Oksana Konstantinovna esa Rossiya Federatsiyasi hamda Habarovskiy Kray misolida raqamli iqtisodiyot sharoitida sog‘liqni saqlash xizmatlari sohasini rivojlantirishni boshqarish mavzusidagi tadqiqot ishida sog‘liqni saqlash xizmatlari sohasini raqamli asosda boshqarish xususiyatlari, raqamli texnologiyalar asosida aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish xususiyatlari hamda mahalliy tibbiy xizmatlar ishlab chiqaruvchilarini axborot tizimlari asosida qo‘llab quvvatlash xususiyatlarini tadqiq qilib, tibbiy xizmat ko‘rsatish subyektlarini faoliyatini integral baholash metodologiyasini asoslab bergan. [3]

I.f.d professor Rajabov O‘tkir Do‘snayevich, o‘z ishlarida tibbiy xizmatlar hamda sog‘liqni saqlash massalarini tasniflash, tibbiy xizmatlar bozori tahlili, sohani rivojlantirish strategiyalari va unda xususiy sektor ishtiroki tahlilini amalga oshirgan holda nodavlat tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish istiqbollarini keltirib o‘tgan. Jumladan, uning “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash rivojlanishidagi o‘zgarishlar” nomli maqolasida mustaqillik yillarida ambulator-poliklinikalar faoliyati, aholining

shifokorlar bilan ta'minlanganligi, reproduktiv salomatlik, yuqumli kasalliklar bilan kasallanish, sog'liqni saqlashni byudjetdan moliyalashtirish hamda nodavlat shifoxonalar soni o'zgarishi tahlillarini amalga oshirilgan. Sohani xususiy sektor ishtirokida rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar keltirib o'tgan. [4]

G.Mamadova, N.Nazarovalar esa o'z ishlanmalarida O'zbekistonda tibbiy xizmatlar bozorining asosiy xususiyatlariga to'xtalgan holda sohani rivojlantirishda marketing tadqiqotlarini o'rni va tibbiyot turizmi ko'rsatkichlari hamda uni rivojlantirish istiqbollarini asoslab o'tishgan. [5] Tadqiqotimizda yuqoridagi olimlarning ishlanmalari bilan bir qatorda, bevosita Prezident huzuridagi Statistika agentligining davriy to'plam va hisobotlari ma'lumotlaridan ham keng foydalanildi.

METODOLOGIYA

Mazkur tahliliy tadqiqotimizda statistik ma'lumotlarni jamlagan va umumlashtirgan holda bazisli hamda zanjirli usullardan foydalangan holda o'zgarishlar tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, taqqoslash va ulushlarni ajratish orqali tahliliy sintez metodlari ham tadqiqot metodologiyasi sifatida keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot mavzusi doirasida o'rganilgan adabiyotlarga asoslangan holda va mavzuni chuqurroq tadqiq etish maqsadida quyidagicha ta'riflashni amalga oshirishni lozim deb hisoblagan holda:

Tibbiy xizmat ko'rsatish – bu tibbiy texnologiyalar, tibbiy vositalar bilan malakali tibbiyot xodimlari tomonidan sog'liqni tiklash yoki uni mustahkamlash maqsadida xizmat ko'rsatish bo'lib, ko'p bosqichli, murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib hisoblanadi.

Tibbiy xizmatlar bozori – tibbiy xizmat iste'molchilari, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, turli vositachi iqtisodiy subyektlar (sug'urta kompaniyalari, kreditlovchi moliya muassasalari, konsalting kompaniyalari, sertifikatatsiya hamda akkreditatsiya kompaniyalari) hamda tarmoqni nazorat qiluvchi davlat va xalqaro korxona, tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlar yig'indisidan iborat bo'lib, bu bozorda tibbiy xizmatni tashkil etish, tibbiy faoliyatni litsenziyalash, sertifikatatsiyalash, akkreditatsiyalash va tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi.

Tibbiy xizmatlar bozorini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosida rivojlantirishni asoslash hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatishni tashkiliy omillarini o'rganish tarmoqning asosiy ko'rsatkichlari tahlilisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Mazkur ishlanmamizda mamlakat tibbiy xizmatlar bozorining eng muhim ko'rsatkichlari sifatida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymati, shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, o'rtacha tibbiyotda bandlar soni, tibbiyot sohasiga kiritilgan investitsiyalar, tibbiyot tarmog'i importi va eksporti, aholining kasallanishlari soni va unda alohida kasalliklar guruhi bo'yicha ko'rsatkichlari tahlil uchun tanlandi.

1 jadval.

Tibbiy xizmatlar bozorining 2019-2022 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari tahlili[6]

Yillar	2019	2020	2021	2022
Ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymati, mln so'm	3104268,7	3386710,7	5105910,8	6613074
o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	109,10	150,76	129,52
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	109,10	164,48	213,03
Jami shifokorlar soni, ming kishi	91,9	93,3	95,6	100,5
o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	101,52	102,47	105,13
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	101,52	104,03	109,36
Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni, ming kishi	365,9	369,9	372,5	382,8
o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	101,09	100,70	102,77
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	101,09	101,80	104,62
O'rtacha tibbiyotda bandlar soni, ming kishi	616,7	669,5	650,8	671,3
o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	108,56	97,21	103,15
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	108,56	105,53	108,85
Tibbiyot sohasiga kiritilgan investitsiyalar, mlrd so'm	8156,6	6640,1	7409,9	10798
o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	81,41	111,59	145,72
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	x	81,41	90,85	132,38

1-jadvalda Statistika agentligi hisobotlari asosida tayyorlangan Respublika tibbiy xizmatlar bozorining 2019-2022 yillardagi asosiy sifat ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan bo'lib, unga asosan tahlil qilinayotgan davrda o'rganilayotgan dastlabki ko'rsatkich, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymati barqaror tarzda oshish tendensiyasini qayd etgan hamda 2022 – yilda 2019 –yilga nisbatan 2 barobardan oshiq, ya'ni 213 foizga o'sgan. Yillar kesimida ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori o'sish 2021- yilda qayd qilingan bo'lib, ushbu holat bevosita “koronavirus pandemiyasi” bilan bog'liq. Ya'ni, yalpi kasallanishlar natijasida tibbiy xizmatlarga talab keskin oshib, mazkur talabning ko'pchiligi tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'zlashtirilgan. Tibbiy xizmatlar bozori tavsiflovchi ikkinchi ko'rsatkich faoliyat ko'rsatayotgan “jami shifokorlar soni” bo'lib, o'rganilayotgan davrda shifokorlar soni qariyb 9 ming kishiga oshgan (9,4 foizlik o'sish), eng yuqori o'sish sur'ati 2022 yilga to'g'ri kelgan. Ushbu holatni pandemiya effekti hamda tarmoqda ish

haqi va daromadlar oshishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz. Keyingi ko'rsatkichlar, ya'ni "o'rta tibbiyot xodimlari soni" (jami, ming kishi) hamda "o'rtacha tibbiyotda bandlar soni" (jami, ming kishi) bo'yicha ham barqaror o'sish ko'rsatkichlari qayd etilgan. Mazkur davrda o'rta tibbiyot xodimlari, ya'ni hamshiralar, akusherlar, feldsherlar soni mutlaq o'sishi 16,9 ming kishini tashkil qilgan, o'rtacha tibbiyot sohasida band bo'lganlar soni esa 54,6 ming kishiga ko'paygan. Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlili yangi tashkil etilayotgan hamda faoliyatini kengaytirayotgan kichik biznes subyektlari muhim ma'lumotlar sifatida xizmat qiladi.

2-jadval

Tibbiy xizmatlar bozorining tashqi savdo aylanmasi tahlili [6]

Yillar	Import, ming dollar		Eksport, ming dollar	
	dori darmonlar	tibbiyot uskunalari	dori darmonlar	tibbiyot uskunalari
2019	825917,2	167070,9	5128,8	2200,1
2020	1031799,3	278695,3	17211,8	2767,8
2021	1206685,9	229270,2	15376,5	6480
2022	1319029,5	242692,6	13834,2	6670,8
Yillar bo'yicha jami	4383431,9	917729	51551,3	18118,7
Jamiga nisbatan tarkibiy ulush, %da	82,7	17,3	74	26
Bazisli nisbiy o'sish, baravar	1,6	1,45	2,7	3,03

Keyingi jadvalda tibbiy xizmatlar bozorining tashqi iqtisodiy aloqalari tahlili keltirilgan bo'lib, o'rganilayotgan davrda 5,3 mln AQSH dollaridan oshgan. Eksport tarkibida ham import tarkibida ham dori darmonlar ulushi tibbiyot uskunalari ko'proq bo'lib, yillar bo'yicha jamiga nisbatan tarkibiy ulushlar mos ravishda importda 82,7 va 17,3 foizni, eksportda 74 va 26 foizni tashkil etgan. Yillar kesimida eng ko'p dori darmon importi 2022 yilda kuzatilgan bo'lsa, eng ko'p tibbiyot uskunalari importi 2020 yilda, eksporti esa 2022 yilda amalga oshirilgan. Dori darmonlarning eng katta hajmdagi eksporti 2020 yilga to'g'ri kelgan. Tibbiy dori darmon hamda uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hamda farmatsevtika korxonalarini jadal rivojlantirish natijasi o'laroq, dori darmonlar va tibbiyot uskunalari eksporti 2022 yilda 2019 yilga nisbatan mos ravishda 2,7 va 3,03 baravarga oshgan. Dori darmonlar va tibbiyot uskunalari importining bazisli nisbiy o'sishi mos ravishda 60 va 45 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlildan ko'rinadiki, tibbiy xizmatlar bozori tashqi savdo aylanmasida importning ulushi juda katta (98,7 foizdan ko'p) va ushbu holat kelgusida tibbiy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish hamda kengaytirish uchun muhim sabab bo'lib xizmat qiladi.

Tibbiy xizmatlar bozori xususiyatlarini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri aholining kasalliklarga chalinishlari soni bo'lib, 3-jadval ushbu jarayon tahlili uchun mo'ljallangan. Jumladan, kasallanishlar soni o'rganilayotgan davrda yuqori darajada ko'paygan. 2022-yilda 2019-yilga nisbatan mutlaq o'sish 6 mln.dan oshiq yoki 38.3 foizga teng bo'lgan. Yillar davomida aholining kasallanishlari o'rtacha 23.8 foizga ko'paygan. Kasallanish sabablari, ya'ni kasalliklar orasida eng katta ulush nafas organlari kasalliklari va hazm qilish organlari kasalliklariga tegishli bo'lgan bo'lsa, eng

kam sonli kasallanish holatlari tug'ma anomaliyalar hamda ruhiyat, xulq-atvor buzilishi kasalliklari boyicha qayd qilingan. Shuningdek, qon yaratuvchi organlar, siydik tanosil tizimi kasalliklari va ko'z kasalliklari hamda yuqumli kasalliklar, o'sma va endokrin tizimi kasalliklari, ko'z va asab kasalliklari, hazm qilish va siydik tanosil tizimi kasalliklari bo'yicha kasallanish holatlari oshgan.

3-jadval

O'zbekistonda 2019-2022 yillarda aholining kasallanishlari tahlili[6]

Ko'rsatkichlar/Yillar	o'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	Yillar bo'yicha o'rtacha	Jamiga nisbatan, foizda
Aholining kasallanishlari soni, jami ming holat	ming holat	15676,6	19368	20882,9	21682	19402,3	100
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	123,55	133,21	138,31	123,77	
ayrim yuqumli va parazitlar kasalliklari	ming holat	374,1	701,3	725,1	748,5	637,25	3,28
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	187,46	193,83	200,08	170,34	
o'smalar	ming holat	46	73,3	87	81,2	71,875	0,37
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	159,35	189,13	176,52	156,25	
endokrin tizimi kasalliklari, noto'g'ri ovqatlanish	ming holat	510,8	735,9	913	942,9	775,65	4,00
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	144,07	178,74	184,59	151,85	
qon va yaratuvchi organlar kasalligi	ming holat	1843	1649,8	1711,1	1641,7	1711,4	8,82
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	89,52	92,84	89,08	92,86	
asab tizimi kasalliklari	ming holat	525,2	834,7	1009,2	1069,4	859,625	4,43
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	158,93	192,16	203,62	163,68	
ko'z kasalliklari	ming holat	683,3	880,1	1048,3	1574,5	1046,55	5,39
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	128,80	153,42	230,43	153,16	
quloq kasalliklari	ming holat	500,6	643,1	651,6	648,1	610,85	3,15
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	128,47	130,16	129,46	122,02	
ruhiyat va xulq-atvor buzilishi	ming holat	38	47,9	47	46,4	44,825	0,23
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	126,05	123,68	122,11	117,96	
qon aylanish tizimi kasalliklari	ming holat	717,9	975,9	1181,8	1205	1020,15	5,26
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	135,94	164,62	167,85	142,10	
nafas organlari kasalliklari	ming holat	4750,5	4585,8	4598,1	4682,6	4654,25	23,99

Ko'rsatkichlar/Yillar	o'lchov birligi	2019	2020	2021	2022	Yillar bo'yicha o'rtacha	Jamiga nisbatan, foizda
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	96,53	96,79	98,57	97,97	
hazm qilish organlari kasalliklari	ming holat	2210,8	3511,6	3740,6	3925	3347	17,25
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	158,84	169,20	177,54	151,39	
siydik tanosil tizimi kasalliklari	ming holat	940	1402,9	1700,1	1646,9	1422,475	7,33
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	149,24	180,86	175,20	151,33	
homiladorlik va tug'ish bilan bog'liq kasalliklar	ming holat	386,9	431,6	763,9	840,9	605,825	3,12
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	111,55	197,44	217,34	156,58	
teri va teri osti kasalliklari	ming holat	627,3	479,5	504,4	498,6	527,45	2,72
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	76,44	80,41	79,48	84,08	
suyak va mushak osti to'qima kasalliklari	ming holat	318,1	461,5	478,7	508,6	441,725	2,28
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	145,08	150,49	159,89	138,86	
perinatal davr kasalliklari	ming holat	96,4	89,2	89,7	151,9	106,8	0,55
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	92,53	93,05	157,57	110,79	
tug'ma anomaliyalar, deformatsiyalar	ming holat	12,6	16	10,7	12,1	12,85	0,07
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	126,98	84,92	96,03	101,98	
jarohatlanish va zaharlanish oqibatlar	ming holat	1062,7	976,6	1139,4	1106,4	1071,275	5,52
2019 yilga nisbatan o'zgarish	foizda	x	91,90	107,22	104,11	100,81	

Teri va nafas organlari kasalliklari hamda qon va qon yaratuvchi organlar bilan bog'liq kasallanish holatlari kamaygan. Umumiy holatda ushbu jadval ma'lumotlari asosida kasalliklar turlari bo'yicha aholining tibbiy xizmat turlariga bo'lgan talabining shakllanishi xususiyatlarini aniqlash va segmentlash mumkin bo'ladi.

Tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayoni hamda xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida tibbiy kadr va mutaxassislar salohiyatini ko'rsatish mumkin. Tibbiyot sohasi mehnat resurslari, ya'ni shifokorlar hamda kichik xizmat ko'rsatuvchilar o'rta tibbiyot xodimlari tarkibi va soni bo'yicha 2019-2022 yillarni qamrab olgan tahlil keyingi 4-jadvalda keltirilgan bo'lib, quyida ushbu tahlilning eng muhim ko'rsatkichlariga to'xtalamiz.

Shunday qilib, o'rganilayotgan davrda jami shifokorlar soni, qariyb 8600 kishiga ko'paygan bo'lib, aynan 2022-yilda asosiy tibbiy kadrlar soni mamlakatimiz tarixida ilk bor 100 ming kishidan oshgan. Shifokorlar sonining yillik o'rtacha o'sishi 2150

kishiga yoki 2.25 foizni tashkil qilmoqda. Shifokorlar tarkibi hamda ixtisosliklar bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlar ma'lumotlar asosida shuni kuzatish mumkin, tadqiq qilinayotgan yillarda terapiya ixtisosligida shifokorlar eng katta ulushga ega bo'lib, aynan terapevtlar soni 14 ming 200 kishiga yoki 73,2 foizga oshgan, Ushbu holat faqatgina ta'lim dargohlari samarasi bo'libgina qolmasdan, mazkur davrda ko'proq terapevtik davolashga talab samarasi natijasida shifokorlarning qayta ixtisoslashuvi bilan ham bog'liq. Jarroh shifokorlar soni bo'yicha ikkinchi ko'p ulushga ega bo'lib, mazkur davrda ularning soni kamaymagan, faqat terapevtlar sonini keskin oshishi natijasida Jamidagi ulushi kamayganligini ko'rish mumkin. O'rganilayotgan 2019-2022 yillarda jarrohlar bilan bir qatorda akusher-ginekologlar hamda pediatriklar ulushining ham kamayganligini ko'rish mumkin. Yuqoridagi ixtisoslikdan farqli o'laroq ularning soni ham kamayganligini ko'rish mumkin. Shifokorlar ichida eng kam ulushdagi ixtisosliklar sifatida narkologlar hamda onkologlarni ko'rsatish mumkin.

4-jadval

O'zbekistonda 2019-2022 yillarda tibbiyot xodimlari tarkibi tahlili [6]

<i>Ko'rsatkichlar/Yillar</i>		<i>o'lchov birligi</i>	<i>2019 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>Yillar bo'yicha o'rtacha</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
1	Shifokorlar, jami	ming kishi	91,90	93,30	95,60	100,50	95,33	100,00
1.1.	terapevtlar	ming kishi	19,40	20,80	23,10	33,60	24,23	25,41
1.2.	Jarrohlar	ming kishi	10,10	11,30	11,80	11,50	11,18	11,72
1.3.	akusher ginekologlar	ming kishi	5,70	5,40	5,10	5,40	5,40	5,66
1.4.	pediatriklar	ming kishi	6,10	5,20	5,00	6,00	5,58	5,85
1.5.	oftalmologlar	ming kishi	2,00	1,60	1,40	1,70	1,68	1,76
1.6.	otolaringologlar	ming kishi	2,00	1,80	1,90	1,90	1,90	1,99
1.7.	ftiziatriklar	ming kishi	1,20	1,20	1,30	1,20	1,23	1,29
1.8.	nevropatologlar	ming kishi	3,00	2,80	2,70	3,40	2,98	3,12
1.9.	psixiatriklar	ming kishi	1,10	1,00	1,00	1,10	1,05	1,10
1.10.	narkologlar	ming kishi	0,40	0,40	0,40	0,40	0,40	0,42
1.11.	dermatovenerologlar	ming kishi	1,30	1,40	1,40	1,30	1,35	1,42
1.12.	stomatologlar	ming kishi	5,70	5,60	6,20	6,10	5,90	6,19
1.13.	sanitariya-epidemiologlar	ming kishi	4,30	4,80	4,00	4,20	4,33	4,54
1.14.	rentgenolog va radiologlar	ming kishi	1,20	1,30	1,40	1,50	1,35	1,42
1.15.	onkologlar	ming kishi	0,50	0,50	0,50	0,90	0,60	0,63
2	O'rta tibbiyot xodimlari jami	ming kishi	365,60	369,90	372,50	382,80	372,70	100,00
2.1.	feldsherlar	ming kishi	20,40	20,80	21,00	21,80	21,00	5,63
2.2.	feldsher-laborantlar	ming kishi	21,50	21,70	21,60	21,60	21,60	5,80
2.3.	doyalar	ming kishi	20,20	19,90	19,50	20,00	19,90	5,34
2.4.	hamshiralar	ming kishi	279,60	280,60	288,30	301,60	287,53	77,15
2.5.	sanitariya-epidemiologlar yordamchilari	ming kishi	6,60	5,30	5,30	48,00	16,30	4,37
2.6.	rentgenolog laborantlar va rentgen-texniklar	ming kishi	2,60	2,60	2,70	2,90	2,70	0,72
2.7.	tish texniklari	ming kishi	1,50	1,50	1,50	1,20	1,43	0,38
2.8.	yo'riqchi dezinfektorlar	ming kishi	3,20	4,40	2,00	1,90	2,88	0,77

Shuningdek, tahlil natijalaridan umumiy soni kamaygan shifokorlik ixtisosliklarga oftalmologlar, otalaringologlar, sanitar-epidemiologlarni kiritish mumkin bo'lsa, o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lgan ixtisosliklarga nevropatologlar, stomatologlar, rentgenolog va radiolologlarni qo'shish mumkin. Boshqa ixtisosliklar shifokorlari soni o'zgarishsiz qolgan bo'lib, faqatgina jami shifokorlar sonidagi ulushi kamaygan.

O'rta tibbiyot xodimlari soni ham tahlil qilinayotgan 2019-2022 yillarda ko'paygan bo'lib, o'sish miqdori 17 ming 200 kishini yoki 4,7 foizni tashkil qilgan. Eng ko'p o'sish ham eng katta ulush ham hamshiralarga tegishli bo'lib, hamshiralar jami o'rta tibbiyot xodimlarining 77,15 foizini tashkil qilmoqda. Hamshiralar soni mazkur 4 yil davomida 22 ming kishiga oshgan bo'lib, 2022-yilda 2019-yilga nisbatan bazisli o'sish qariyb 7,9 foizni tashkil qilmoqda. Hamshiralardan keyin feldsherlar, doylar va feldsher laborantlar soni katta ulushga ega bo'lib, ulardan feldsherlar va laborantlar soni oshgan bo'lsa, doylar soni kamayganini kuzatishimiz mumkin. O'rta tibbiyot xodimlaridan tish texniklari hamda rentgen texniklari va laborantlari soni eng kam ulushga ega bo'lgan. Bazisli usulda eng ko'p foizli kamayish yo'riqchi dezinfektorlarga tegishli bo'lib, ushbu holat karantin yoki ommaviy pandemiya davridan keyin dezinfeksiya ishlariga talabning keskin kamayishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy holatda mamlakatimiz boshqa sohalar singari tibbiyot sohasida ham yetarli kadrlar salohiyatiga ega bo'lib, mazkur salohiyat tibbiy xizmatlar sifati va raqobatbardoshligi hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ham yetarli deb hisoblaymiz. Yuqorida o'rganilgan omillarni tahlil qilish va hisobga olish, nafaqat yangi faoliyat boshlayotgan xususiy shifoxona va klinikalar, balki sohada faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi ixtisosliklar hisobiga kengayayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun ham maqsadli deb hisoblaymiz. Chunki, tibbiy xizmat ko'rsatishda to'g'ri va maqsadli segmentlashni amalga oshirish, xodimlar salohiyatini oldindan optimal rejalashtirish hamda sog'liqni saqlash tarmog'ining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari holati hamda dinamikasini hisobga olish klinikaning kelgusidagi rivojlanishini ta'minlabgina qolmay, maqsadli raqobatbardoshlik strategiyasini shakllanishiga hamda operatsion faoliyatni tashkillashtirishga muhim ta'sir o'tkazadi. Shu o'rinda ushbu ishlanmamizda keltirilmagan boshqa omillar, ularning ta'sirini o'rganish hamda hisobga olish ham maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. <https://uz.wiktionary.org/wiki/omil>
2. autoref-metodologicheskie-osnovy-upravleniya-sferoi-uslug-zdravookhraneniya.pdf Sankt-Peterburg. 2009.

3. УПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЕМ СФЕРЫ УСЛУГ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ., КОРОБКОВА Оксана Константиновна., Москва – 2020

4. РАЖАБОВ Ў.Д. ЎЗБЕКИСТОНДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ТАДРИЖИЙ ЎЗГАРИШЛАР., ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 4(136).

5. ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ Мамадова Г. Б., Назарова Н. Б. Тошкент тиббиёт Академияси ЎЗБЕКИСТОН ВРАЧЛАР АССОЦИАЦИЯСИНИНГ БЮЛЛЕТЕНИ 2023

6. Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.